

## TEKNOLOGIYA TA'LIMINI YANGI VA ILG'OR PEDAGOGIK HAMDA MAXSUS TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING TAHLILI

**Jabborova Umida Yusupovna**

*JDPU Sirtqi bo'lim, Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

*Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimizi bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.*

**(Sh. M. Mirziyoyev)**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada 20-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi, o'tkazildi. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda mahsulot tayyorlash texnologiyalari tahlili yuzasidan ilmiy izlanishlar mohiyati yoritilgan. Unda muassasalarida texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarda mahsulot tayyorlash texnologiyalari tahlili nazariy asoslari, metodlari va vositalariga alohida e'tibor berilgan. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida mahsulotlar tayyorlash kurslarini o'qitish va kelajakda zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lish va ushbu kursni o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *Mahsulot tayyorlash, texnologiyalar, kreativ industriya, ijtimoiy davlat.*

**Аннотация:** *В данной статье 20 января состоялось расширенное совещание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по вопросам развития системы иностранных языков и профессионального обучения в школах. Освещен характер научных исследований по анализу технологий приготовления продукции у студентов в процессе технологического обучения в средних специальных учебных заведениях. В ней особое внимание уделено теоретическим основам, методам и инструментам анализа технологий приготовления продукции студентами в процессе технологического образования в своих вузах. Освещена методика преподавания курсов подготовки изделий в средних специальных учебных заведениях и возможность удовлетворения требований времени в будущем и образовательном процессе данного курса.*

**Ключевые слова:** *Разработка продуктов, технологии, креативная индустрия, социальное государство.*

**Abstract:** *In this article, the expanded meeting of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev on the issues of development of the system of foreign languages and vocational training in schools on January 20 was held. The nature of scientific research on the analysis of product preparation technologies among students*

*during technology education in secondary special educational institutions is highlighted. In it, special attention is paid to the theoretical bases, methods and tools of the analysis of product preparation technologies among students in the process of technology education in their institutions. The method of teaching product preparation courses in secondary special educational institutions and being able to meet the requirements of the time in the future and the educational process of this course is highlighted.*

**Key words:** *Product development, technologies, creative industry, social state.*

Texnologiyaga ta'riflar

1) Ensiklopedik lug'atda texnologiya so'ziga shunday ta'rif beriladi: texnologiya – bu “biror bir material, yarimfabrikat, yoki xomashyoni qayta ishlash, tayyorlash, uning holatini o'zgartirish, xususiyatlarini boshqacha qilishga yo'nalitirilgan metodlar majmuasidir”.

2) V. Dal lug'ati: “har qanday ish, faoliyat, mohorat va san'atda ishlatiladigan uslublar majmuasidir”.

3) S.I.Ojegov lug'atida texnologiya biror bir ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan turli metodlar majmuasi sifatida qaraladi, texnologiya deb ishlab chiqarishning ilmiy bayoniga aytiladi: “Texnologiya – bu bilim, malaka, ko'nikma, metodlar va faoliyat turlarining majmuasi bo'lib, har qanday muammolarning ilmiy yechilishi algoritmi hisoblanadi”.

4) “Texnologiya – bu turli xil metodlar majmuasigina bo'lib qolmay, u texnologiyada biror bir konkret maxsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur” (S.A.Smirnov).

5) “Texnologiya deganda avvalgi holatdagi har qanday maxsulotning yangi tarzda qayta shakllantirilishi bo'lib, mahsulot sifatida odamlar, axborot, jismoniy va moddiy boyliklar qaralishi mumkin, ularning barchasi yangi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltiriladi” (M.X.Melson).

Bugungi kunda ishlatiladigan barcha texnologiyalar ikki turga bo'linadi:

1-Ishlab chiqarish texnologiyalari: xomashyoni hamda uning asosidagi 'olufabrikatlarni ishlash va qayta ishlash (neft, ruda, yog'och) va uning asosidagi 'olufabrikatlar (metall, prokat, tarket, gi'sokarton v.b..).

2-Ijtimoiy texnologiyada: xomashyo va uni qayta ishlash mahsuloti sifatida inson omili turadi. Unda qayta ishlashga yo'naltiruvchi narsa inson omili va undagi xususiyatlar o'zgarishlari bo'ladi (masalan, o'qitish texnologiyalarining o'zgarishi).

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratuvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda

Pedagogik texnologiyaning mazmuni esa o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan o'quvchi (ta'lim oluvchi)ga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan

iboratdir. 'edagogik texnologiya tushunchasi XX asrda 'aydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o'rtasigacha „ta'lim texnologiyasi“ deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan. 'edagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQShda qo'llana boshlagan. Bunda „Pedagogik texnologiya“ va „ta'lim texnologiyasi“ atamalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi.

O'tgan asrning 50-yillari o'rtasidan 60-yillargacha „ta'lim texnologiyasi“ atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

70-yillarda „Pedagogik texnologiya“ atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan.

1979-yilda AQShning 'edagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan 'edagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: „Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baholash va uni boshqaruvchilar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kom'leks integrativ jarayondan iborat...“.

80- yillarning boshidan 'edagogik texnologiya deb ta'limning kom'yuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

2. Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda 'edagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V'. Bes'alko).

Pedagogik texnologiya — ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti.

(I'. Volkov).

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (M. Choshanov).

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi 'edagogik faoliyat modeli. (V. M. Monaxov.)

Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini o'timallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratash, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya — bu tizimli fikr yuritish usulini 'edagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, 'edagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya — bu o`qitishga o`ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U Pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texнократик ilmiy ongning Pedagogika sohasiga ko`chirilgan tasviri, ta`lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B. L. Farberman.)

Pedagogik texnologiya — turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta`riflari mazmunini o`zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat. (G. K. Selevko.)

Hozir ta`lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo`nalishlardan biri — zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llash bo`lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir. Ma`lumki, ta`lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o`z bilim va tajribalarini o`sib kelayotgan avlodga o`rgatishdan iborat bo`lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan-avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog`liq.. Boshqacha aytganda, insonning har bir harakati axborot olish va uzatish yoki undan foydalanish, uni o`rganish, o`zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi insoniyat sivilizatsiyasini axborot sivilizatsiyasi deb ataladi.

Texnologiyalarda ko`proq prosesual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo`naltiruvchi tomonlari ko`proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o`zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg`unligi, ko`plab “agar”lar(agar o`qituvchi iste`dodli, agar bolalar qobiliyatli bo`lsa, agar yaxshi ota-onalar bo`lsa....) yo`qligi bilan farq qiladi.Ya`ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo`lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo`llash mumkinligi bilan juda ham individual bo`lgan metoddan farq qiladi.

Metod – biror harakatni amalga oshirish yo`li, usuli yoki ko`rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish yo`li deb, bajarilishi talab etilayotgan faoliyat uchun qo`llash mumkin bo`lgan bir nechta yo`ldan oldindan ko`zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo`lga aytiladi.

Harakatni amalga oshirish usuli deb, tanlangan ma`lum yo`ldan foydalangan holda oldindan ko`zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo`llaniladigan harakat usullariga aytiladi.

Hozircha metodlar ,metodikalar va texnologiyalar bitta tushuncha sifatida idrok qilinmoqda.Texnologiyalar va metodikalarni aralashtirilib yuborish shunday hollarga olib keladiki, ba`zan metodika texnologiyalar tarkibiga kirib qoladi, ba`zan esa aksincha

Pedagogik texnologiya o`quv jarayoni (ya`ni o`qituvchining o`quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko`p darajada bog`langan.

O`quv fani va uni o`qitishning o`ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo`lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo`nalishlari.

Pedagogik texnologiyaning yo`nalishlari ko`p bo`lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

Hozirgi an'anaviy ta'lim. XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil eilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiq lashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari xususiy (O'quv fanlari) pedagogik texnologiyalari, alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik-(tajriba) sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-(bilishga oid) atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik-(haqiqatni topish) yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o'quv-izlanish ta'lim

metodi. Optimallashtirilgan (ko'p variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiq'ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inverison-(almashtirish) axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ-(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

Adaptiv-(moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv-(tenglik) o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv va boshqa yo'nalishlarini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 56 b. (.pdf 17.6Mb).

2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktyabrdagi 400-sonli qarori

3. Abduquddusov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005. - 160 b.

4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: 2003, -174 b.

5. Bogoyavlenskaya D.B. Intellektualnaya aktivnost kak problema tvorchestva. - Rostov-na-Donu, 1983. -174 s.

6. Djumabaeva F., So'fixo'jaev N., Tursunova Z.M. Talabalarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish. –Andijon, 2002. - 102 b.